

**OMMAVIY OFFERTA –**  
**“INTERNET BANKING iDBA” MASOFAVIY BANK XIZMATLARI TIZIMINING ERP**  
**TIZIMI BILAN “DIBANK” XIZMATI ORQALI INTEGRATSIYASI TO‘G‘RISIDA**  
**SHARTNOMA**

“KDB Bank O‘zbekiston” AJ (keyingi o‘rinlarda – “**Bank**”) bir tomondan, va Bank bilan Bank hisobvaraqlar shartnomasi hamda “Internet banking iDBA” masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish shartnomasini imzolagan yuridik shaxs (shu jumladan kredit tashkiloti) va yakka tartibdagi tadbirkor (keyingi o‘rinlarda – “**Mijoz**”) boshqa tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb ataladi,

O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Fuqarolik kodeksining 353-358, 369-moddalari va boshqa normative-huquqiy hujjatlariga muvofiq,

Mijozning ERP tizimi va Bankning “Internet Banking iDBA” masofaviy bank xizmatlari tizimini “Dibank” xizmati orqali integratsiya qilish bo‘yicha ushbu Shartnomani tuzdilar (keyingi o‘rinlarda – “**Shartnoma**” deb yuritiladi).

**1. Atamalar va ta’riflar**

**Mijoz ERP tizimi** – litsenziya shartnomalari asosida Mijoz tomonidan o‘z nomidan va hisobidan sotib olingan va buxgalteriya/hisob tizimi sifatida foydalaniladigan “1C”/“Didox” dasturiy mahsulotlari. “Dibank” xizmati tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan mahsulotlar ro‘yxati “Venkon Group” MCHJ tomonidan belgilanadi va rasmiy [www.dibank.uz](http://www.dibank.uz) veb-saytida e‘lon qilinadi;

**Login va Parol xavfsizligining buzilishi (komprometatsiyasi)** – Foydalanuvchining Login, Parol va/yoki ERP kalitining xavfsizligi va maxfiyligiga ishonchning yo‘qolishi;

**“Dibank” xizmati** – Mijozga o‘z ERP tizimi orqali elektron hujjatlar (“EH”) va elektron to‘lov hujjatlarini (“ETH”) yuborish imkonini beruvchi xizmat bo‘lib, yuboriladigan hujjatlar ro‘yxati ushbu Shartnomada ko‘rsatilgan, kirish Internet Banking tizimidagi Foydalanuvchining Logini/Paroli orqali “Dibank” texnologiyasi asosida amalga oshiriladi;

**Internet Banking tizimi** – Bank tomonidan masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish va bank amaliyotlarini bajarish uchun dasturiy, texnik vositalar va telekommunikatsiya tizimlari majmui, Bank va Mijoz o‘rtasidagi masofaviy bank xizmatlari orqali o‘zaro aloqa “Internet Banking iDBA” xizmat ko‘rsatish shartnomasi - Ommaviy oferta shartlariga muvofiq o‘rnatiladi;

**Hisobraqam** – shartnoma tuzish natijasida Mijoz uchun (yoki uning nomiga) bankda ochilgan O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida va/yoki chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i (hisob-kitob yoki joriy hisobvaraqlar) va boshqa turdagi bank hisobvarag‘i;

**ERP kaliti** – Mijozning elektron raqamli imzosini (ERI) himoyalangan tarzda saqlashga mo‘ljallangan sertifikatlashtirilgan USB qurilma;

**Elektron raqamli imzo (ERI)** – ushbu Shartnomada O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonuni talablarga muvofiq qo‘llaniladi. ERI sifatida “ERP kalit” qo‘llaniladi;

**Foydalanuvchi** – Mijozning EH/ETH yaratish va yuborish, shuningdek Internet Banking tizimiga kirish huquqi vakolatiga ega mas’ul xodimi;

**Ish kuni** – Bankning doimiy faoliyatini yuritayotgan har bir kuni.

## 2. Umumiy qoidalar

- 2.1. Ushbu Shartnoma Mijoz va Bank o'rtasida "Internet banking iDBA" masofaviy bank xizmatlari tizimining (keyingi o'rinlarda - **"Internet Banking tizimi"** deb yuritiladi) ERP tizimi bilan "Dibank" xizmati integratsiyasi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasi shartlari va tartibini belgilaydi.
- 2.2. Ushbu Shartnoma "Internet banking iDBA" masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Ommaviy oferta - Shartnomasining (keyingi o'rinlarda - **"Internet Banking tizimi ommaviy ofertasi"** deb yuritiladi) ajralmas qismi hisoblanadi.
- 2.3. Mijoz tomonidan ushbu Shartnomani qabul qilganligi (aksept) - bu Mijozning Bankka belgilangan shaklda, to'g'ri to'ldirilgan va imzolangan Arizani (Internet Banking tizimi ommaviy ofertasining 4-ilovasi) taqdim etishi hamda "Dibank" xizmati dasturiy mahsuloti menyusida belgilangan tegishli harakatlarni bajarishida ifodalanadi.
- 2.4. Ushbu Shartnomani qabul (aksept) qilish orqali Mijoz, ushbu akseptdan voz kechish holatigacha (4.4.1-bandga muvofiq), o'zining bank siriga oid ma'lumotlarini "Venkon Group" MCHJga taqdim etilishiga rozilik bildiradi.
- 2.5. "Dibank" xizmati Mijozga ERP tizimi interfeysi va Internet Banking tizimidagi Foydalanuvchining Logini/Paroli orqali quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:
  - mijoz hisobraqamlaridagi pul harakatlari haqida ma'lumot (ko'chirma) olish;
  - imzolangan to'lov topshiriqnomalarini Bankka yuborish;
  - yuborilgan elektron hujjatlarning holatini nazorat qilish;
  - ish haqi loyihasi doirasida (ish haqi vedomostlari) Bankka elektron hujjatlar va/yoki ma'lumotlarni yuborish.
- 2.6. ERP tizimining integratsiyasi va ma'lumot almashish tartibi dasturiy mahsulot yetkazib beruvchisi<sup>1</sup> - "Venkon Group" MCHJ tomonidan belgilanadi.
- 2.7. "Dibank" xizmatiga ulanish natijasida Bank Internet Banking tizimi va Mijozning ERP tizimi o'rtasida ma'lumot almashish imkoniyatini ta'minlaydi. Biroq, Bank Mijoz yoki dasturiy mahsulot yetkazib beruvchisi ("Venkon Group" MCHJ) tomonidagi nosozliklar yoki texnik ishlar tufayli yuzaga keladigan muammolar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 2.8. Mijoz ushbu Shartnomaning 2.5-bandida ko'rsatilgan funksiyalardan foydalanish imkoniyatini quyidagi shartlar bajarilganidan so'ng qo'lga kiritadi:
  - Bankka to'g'ri to'ldirilgan va imzolangan Ariza (Internet Banking tizimi ommaviy ofertasining 4-ilovasi) taqdim etilganidan so'ng;
  - Mijoz tomonidan ushbu Kelishuvning 4.2.2-bandida ko'zda tutilgan harakatlar bajarilganidan so'ng;
  - Bank tomonidan ma'lumot almashish sozlamalari va ERP kalitni sertifikatlash ishlari bajarilganidan so'ng.

## 3. "Dibank" xizmatidan foydalanish tartibi

- 3.1. "Dibank" xizmati orqali Bank bilan o'zaro munosabatda faqatgina Shartnomada nazarda tutilgan tartibda tegishli huquqlarga ega bo'lgan va vakolatlari Internet Banking tizimi ommaviy oferta bilan belgilangan Mijoz foydalanuvchilari ishtirok etishi mumkin.

---

<sup>1</sup> IC dan "Dibank" xizmatidan foydalanish bo'yicha ko'rsatmasi (<https://www.dibank.uz/Instruction/>).

- 3.2. Mijoz tomonidan Ariza (Internet Banking tizimi ommaviy ofertasining 4-ilovasi) yuborilganidan so‘ng, Bank 3 (uch) ish kuni ichida «Dibank» xizmati bilan ishlash uchun zarur sozlamalarni amalga oshiradi.
- 3.3. Bank bilan «Dibank» xizmati orqali o‘zaro aloqa jarayonida Mijoz faqat ERP kalitidan foydalanishi mumkin. ERP kalitini olish va undan foydalanish tartibi ushbu Internet Banking tizimi ommaviy oferta Shartnoma shartlariga muvofiq belgilanadi.
- 3.4. Bank tomonidan Mijozdan «Dibank» xizmati orqali qabul qilingan EX/ETX ni bajarish va ijro etish tartibi Internet Banking tizimi ommaviy oferta, Bank hamda Mijoz o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar/kelishuvlar hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, shu jumladan qonunlar, qonunosti hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa davlat organlarining normative-huquqiy hujjatlari hamda ular asosida qabul qilingan Bankning ichki qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 3.5. Ushbu ofertaning shartlarini qabul qilgach, Mijoz «Dibank» xizmati orqali ma’lumot almashinuvi “Venkon Group” MChJ tomonidan taqdim etilgan elektron aloqa kanallari orqali onlayn rejimda amalga oshirilishiga rozilik bildiradi.
- 3.6. Ushbu ofertani qabul qilar ekan, Mijoz “Dibank” xizmati Internet Banking tizimidagi Foydalanuvchining Logini/Paroli orqali avtorizatsiya qilish va ularni Mijozning ERP-tizimida saqlash jarayonida Foydalanuvchining Login va Parolining komprometatsiya bo‘lish xavfi mavjudligini tan oladi va bunga rozilik bildiradi.
- 3.7. Bank, Internet Banking tizimidagi Foydalanuvchining Logini/Paroli, jumladan “Venkon Group” MChJ texnik mutaxassisleri yoki Mijozning boshqa texnik mutaxassisleri kabi uchinchi shaxslarga uzatilganligi uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 3.8. Bank, Mijoz ushbu ofertaning 4.4.1-bandida nazarda tutilgan tartibda akseptdan voz kechmaguncha bank sirini tashkil qiluvchi ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 3.9. “Dibank” xizmati uchun komission to‘lov undirilmaydi.
- 3.10. ERP kaliti uchun to‘lov Bank tariflari bo‘yicha amalga oshiriladi va mazkur to‘lovni Bank Mijozning hisobidan avtomatik tarzda yechib olishga haqli. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Mijoz uning ruxsatisiz (Mijozning rozilgisiz) ERP kaliti uchun to‘lovni Mijozning hisobvarag‘idan pul mablag‘larini yechib olishga rozilik beradi.

#### **4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

- 4.1. Bankning majburiyatlari:
  - 4.1.1. Mijozga «Dibank» xizmatidan foydalanish imkoniyatini ushbu Shartnoma va Internet Banking tizimi ommaviy ofertasida belgilangan tartib va shartlarga muvofiq taqdim etish;
  - 4.1.2. «Dibank» xizmatining uzluksiz ishlashini tashkil etish va ta’minlash, ushbu Shartnomaning 2.8-bandida nazarda tutilgan holatlarni inobatga olgan holda texnik/profilaktika ishlari amalga oshiriladigan davrlar bundan mustasno.
- 4.2. Mijozning majburiyatlari:
  - 4.2.1. ushbu Shartnomaning va Internet Banking tizimi ommaviy ofertasining shartlariga rioya qilish;

- 4.2.2. ushbu Shartnomaning 2.8-bandida ko'zda tutilganidek, o'zining ERP tizimini sozlash, yangilash va Internet Banking tizimi bilan integratsiya qilish bo'yicha zaruriy texnik choralarni amalga oshirish;
- 4.2.3. uchinchi shaxslarning «Dibank» xizmatidan foydalanishini istisno etish, ushbu Shartnomaning 2.5-bandida qayd etilgan funksiyalar va vakolatlarga muvofiq Mijozning hisobraqamlariga oid ma'lumotlarni olish yoki ulardan foydalanish huquqi mavjud bo'lgan foydalanuvchilar bundan mustasno.
- 4.3. Bankning huquqlari:
  - 4.3.1. yozma shaklda kamida 10 (o'n) ish kuni avval xabardor qilgan holda, Mijozga ushbu xizmat taqdim etilishini bir tomonlama rad etish;
  - 4.3.2. ushbu Shartnomaning shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish, shuningdek Mijozni oldindan yozma ravishda xabardor qilgan holda «Dibank» xizmatining funksionalini o'zgartirish.
- 4.4. Mijozning huquqlari:
  - 4.4.1. yozma ravishda qog'oz shaklida yoxud Internet Banking tizimi orqali kamida 10 (o'n) ish kuni avval Bankni xabardor qilgan holda, ushbu Shartnomaning shartlarini aksept qilishdan va/yoki «Dibank» xizmatidan foydalanishdan voz kechish.

## **5. Tomonlarning javobgarligi**

- 5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar.
- 5.2. Mijoz quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:
  - 5.2.1. Internet Banking tizimidagi Foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlarining (Login, Parol, ERP kalit) maxfiyligi va saqlanishini ta'minlash;
  - 5.2.2. Foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlarining (Login, Parol, ERP kalit) komprometatsiya va/yoki ruxsatsiz foydalanilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar uchun;
  - 5.2.3. Mijozning o'zi yoki uning ehtiyotsizligi natijasida uchinchi shaxslar tomonidan "Dibank" xizmatiga ruxsatsiz kirish holatlari uchun va bunday noqonuniy kirish natijasida kelib chiqqan barcha oqibatlar uchun;
  - 5.2.4. Internet Banking tizimi orqali va/yoki "Dibank" xizmati orqali Mijozning hisobvaraqlarini boshqarishda Foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlaridan (Login, Parol, ERP kalit) foydalangan holda Mijozning o'zi yoki uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan har qanday harakat yoki tashabbuslar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday oqibatlar uchun;
  - 5.2.5. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq EH/EHT ni rasmiylashtirish va avtorizatsiya qilish tartibigariyoya qilish uchun.
- 5.3. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:
  - 5.3.1. Internet uzilishi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajara olmaganligi uchun;
  - 5.3.2. Mijoz "Dibank" xizmati orqali Internet Banking tizimiga kirish uchun foydalaniladigan uskuna(larda) zararli dasturlar faoliyati natijasida Foydalanuvchining identifikatsiya

- ma'lumotlari (Login, Parol, ERP kalit) maxfiyligining yo'qolishi va bu bilan bog'liq oqibatlar uchun;
- 5.3.3. Foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlarining (Login, Parol, ERP kalit) foydalanilishi orqali uchinchi shaxslar tomonidan "Dibank" xizmati orqali Mijoz hisobvaraqlarini boshqarishga ruxsatsiz kirish natijasida Mijozga yetkazilgan har qanday zararlar uchun;
- 5.3.4. Bankning aybisiz yuzaga kelgan "Dibank" xizmatidagi uzilishlar, texnik nosozliklar yoki ishdan chiqishlar natijasida Mijoz tomonidan yuborilgan to'lov topshiriqnomalari yoki boshqa ko'rsatmalar bajarilmaganlik holatlari uchun Mijoz yoki uchinchi shaxslar oldida;
- 5.3.5. Bankning aybisiz yuzaga kelgan "Dibank" xizmatidagi uzilishlar, texnik nosozliklar yoki ishdan chiqishlar natijasida "Dibank" xizmati orqali uzatiladigan/so'raladigan ma'lumotlarning doimiy emasligi, noto'g'riligi yoki to'liq emasligi holatlari uchun;
- 5.3.6. Mijoz tomonidan "Dibank" xizmati orqali yuborilgan va amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan yoki tarkibida xatoliklar mavjud bo'lgan ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun;
- 5.3.7. Ushbu Shartnomaning mazkur bo'limida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra Bank tomonidan Mijoz ko'rsatmalarining bajarilmaganligi natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday zararlar va/yoki boshqa oqibatlar uchun.
- 5.4. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni fors-major holatlari tufayli bajara olmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Javobgarlikdan ozod bo'lish shartlari va yengib bo'lmas holatlar yuzaga kelgan taqdirda o'zaro munosabatlarni amalga oshirish tartibi ushbu Shartnomaning 6-bo'limida keltirilgan.

## **6. Fors-major holatlari**

- 6.1. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha Mijoz va/yoki Bankning o'z funksiyalarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlari, ya'ni tabiiy ofatlar, avariya, yong'inlar, ommaviy tartibsizliklar, ish tashlashlar, harbiy harakatlar, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari, aloqa tarmoqlari (shu jumladan Internet tarmog'i) yoki elektr ta'minoti sohasidagi avariya, normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirishi, vakolatli organlar va/yoki tashkilotlarning majburiy ijro etilishi lozim bo'lgan qarorlari natijasida ushbu Shartnomada ko'rsatilgan funksiyalarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita taqiqlovchi holatlar, shuningdek Bank va Mijoz xohishiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.
- 6.2. Fors-major holatlar ta'siriga uchragan Tomon bu holatlar yuzaga kelganidan so'ng zudlik bilan, lekin 3 (uch) bank ish kunidan kechiktirmasdan bu haqida yozma ravishda ikkinchi Tomonni xabardor qilishi, shuningdek salbiy oqibatlarni maksimal darajada kamaytirish bo'yicha barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi shart.
- 6.3. Fors-major holatlari tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajara olmay qolgan Tomon boshqa Tomonni xabardor qilmasa yoki kechiktirib xabardor qilsa, u holda u bunday holatlarga tayanib, majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etilmaydi.
- 6.4. Fors-major holatlar ta'sirida qolgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etilishi, bu holatlar ta'sir etmagan boshqa majburiyatlar bo'yicha javobgarlikdan ozod etilmaydi.

- 6.5. Agar fors-major holatlari 6 (olti) oydan ortiq davom etsa, har qanday Tomon ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan voz kechish huquqiga ega.

## **7. Boshqa shartlar**

- 7.1. Bank tomonidan Mijozga yuboriladigan xabarnomalar quyidagi usullardan biri orqali amalga oshirilishi mumkin:
- 1) rasmiy veb-saytda, Bank binosida ("Axborot" stendida) va Internet Banking tizimida ("Yangiliklar" bo'limida) e'lon joylashtirish orqali;
  - 2) elektron pochta orqali, shuningdek uyali aloqa vositalari (Qisqa xabarlar xizmati – SMS) yordamida, agar Bank va Mijoz o'rtasida bu borada alohida kelishuv mavjud bo'lsa;
  - 3) Bankda Mijoz tomonidan alohida kelishuv asosida ijaraga olingan abonent yashig'iga xabarnoma joylashtirish orqali;
  - 4) qo'lga shaxsan topshirish va qabul qilib olinganini imzo bilan tasdiqlash orqali;
  - 5) pochta xizmati orqali.
- 7.2. Ushbu Oferataning 7.1-bandiga muvofiq yo'llangan barcha xabarnomalar quyidagi holatlarda qabul qilingan deb hisoblanadi:
- rasmiy veb-sayt, Bank binosi va Internet Banking tizimida joylashtirilgan hollarda – joylashtirilgan kunida;
  - elektron pochta yoki SMS orqali yuborilgan hollarda – yuborilgan kunida;
  - qo'lga shaxsan topshirilgan yoki pochta xizmati orqali yuborilgan hollarda – qabul qilingan kunida.
- 7.3. Ushbu Shartnomaning amal qilishi har qanday vaqtda Bank tomonidan Mijozni yozma ravishda xabardor qilgan holda to'xtatilishi yoki bekor qilinishi mumkin.
- 7.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha nizolar yuzaga kelgan taqdirda, Bank va Mijoz ularni tomonlar o'rtasidagi muzokaralar orqali hal etish choralarini ko'radilar. Tomonlar o'rtasida kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.
- 7.5. Ushbu Shartnomada tartibga solinmagan masalalar bo'yicha Tomonlar Bank hisobvaraqlar Shartnomasi, masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha "Internet Banking iDBA" Shartnomasi – ommaviy oferta hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga amal qiladilar.
- 7.6. Ushbu Shartnomaning shartlari o'zbek, rus va ingliz tillarida tuzilgan bo'lib, Bank mazkur tillardagi versiyalar o'rtasidagi mazmuniy muvofiqlikni maksimal darajada ta'minlashga harakat qilgan. Ular o'rtasida nomuvofiqliklar mavjud bo'lgan yoki aniqlangan taqdirda, ingliz tilidagi versiya ustunlik qiladi